

# XORAZM VA XIVA SHAHRIDAGI MASJIDARNING ARXITEKTURAVIY TUZILISHI (Ichan qal'adagi Juma (yoki Jome'), Xonqa tumanidagi Said Ota, Xiva shahridagi Bog'bonli masjidlari misolida)

*Mahmudova Feruza<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm va Xiva shahridagi masjidlar qurilishi tarixi, uslubi va arxitekturasi bilan tanishar ekanmiz, masjidlar islom dini uchun eng kerakli maskan degan hulosaga kelamiz. Bunga misol qolib Xiva shahridagi Ichan qal'ada joylashgan Juma (yoki Jome') masjidi, Xonqa tumanidagi Said Ota masjidi, Xiva shahridagi Bog'bonli masjidini ayta olamiz. Har bitta masjidimizga alohida to'xtalib, uni tuzilishini katta e'tibor bilan o'rganamiz: Juma masjididagi 212ta ustunlarni, Said Ota masjididagi quduq va Bog'bonli masjidi peshtoqidagi bitiklarni alohida aytib o'tish joizdir.

**Kalit so'zlar:** masjid, namozgoh, ustun, madrasa, xonaqoh, bezak, naqsh, tarh, madrasa, gumbaz, vaqf yerlari, qorovulxona, omborxonona, peshtoq, yog'och o'ymakorligi, hovlicha, gulzor, ravoq, sajda.

**Kirish.** Masjid arabcha "sajda" (egilish, sajda qilib yuzini yerga tegizish) so'zidan olingan bo'lib, "sajda, ibodat qilinadigan joy" ma'nosini bildiradi. Masjidlarni "Allohninng uyi" deb ham ataydilar.

Masjidlar o'tmishda nafaqat namoz o'qiladigan joy, balki ancha keng ijtimoiy funktsiyalarni ham bajargan. Masalan, ularda shariyatni buzganlar sud qilingan, kechqururlari ulamolar, yuristlar, shoirlar va faylasuflar uchrashib, ijodiy uyushmalar tashkil qilgan. Masjidlar musulmon Sharq mamlakatlarining diniy va ijtimoiy hayotida muhim mavqeiga ega. Shuning uchun ham masjidlar o'tmishda O'rta Osiyoning tarixiy shaharlarida diniy, siyosiy va shaharsozlik nuqtai nazaridan yetakchi o'rinni egallagan.

Masjidlarni vazifasining mavqei, shahar hududidan joylashishi va me'moriy-rejaviy yechimlariga qarab bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Vazifasining mavqei va joylashishiga ko'ra masjidlar guzar masjidlari, jome masjidlari, saroy masjidlari, madrasalar namozgohlar va qishloq masjidlariga bo'lingan. Guzar masjidlari mahallalar markazlarida joylashib, bu yerdagi maktab, madrasa, choyxonona, savdo va hunarmandchilik do'konlari, hammom kabi jamoat binolari bilan yaxlit me'moriy turkumni tashkil qilgan. Bu turkumda guzar masjidi yetakchi o'rinni egallagan. Guzar masjidlarida har kuni besh vaqt namoz o'qilgan. Jome masjidlari shahar va tuman ahamiyatiga ega bo'lgan alohida bino tarzida qurilgan. Ular, odatda shahar yoki tumanning eng nufuzli jamoat joylari (madrasalar, bozorlar, karvon-saroylar) bilan yonma-yon joylashgan. Jome masjidlari asosan juma namozini o'qishga mo'ljallangani uchun "Juma masjidi" deb ham yuritilgan. Ayrim shaharlarda jome va juma masjidlari alohida o'z binolariga ega bo'lgan.

Namozgohlar esa odatda, shahar tashqarisida, shaharlarga yaqin mavzelerde, orasta bog' va keng hududlarda joylashtirilib, ularda musulmonlar yilda ikki marta ramazon va qurbon hayitlari bayramlari va xalq sayillarida yig'ilib namoz o'qishgan. Boshqacha qilib aytsak, namozgohlar shahar va viloyat

<sup>1</sup>Samarqand arxitektura va qurilish universiteti Madaniy me'ros obyektlarini asrash fakulteti 101-guruh 1-kurs talabasi



mavqeidagi yirik bayram kunlarining ommaviy masjidlari deb atalgan. Namozgohlar hududi devor bilan chegaralanib, o'z binosi bog'i va yordamchi xonalari hamda imoratlarga ega bo'lgan.

Qishloq masjidlari, odatda, bozor bo'lib turadigan katta qishloqlarda qurilib, bozor joylarga yaqin joylashgan. Ayrim katta qishloqlarda esa bir nechta masjidlar bo'lib, ularning bittasi jome masjidi hisoblangan.

Bu masjidlardan tashqari yirik xonaqoh, maqbaralar, ziyoratgoh va mozorlar qoshida ham o'tgan Payg'mbarlar va arvohlarni xotirlash, ular haqiga duolar o'qish uchun masjidlar shakllangan. Ular, odatda, ushbu binolar bilan birikib, o'ziga xos me'moriy majmualar hosil qilgan. Bunday masjidlar, odatda, shaharlar va qishloqlar chetida, ularga yaqin bo'lgan mavzelarda qurilgan.

Endi masjidlarning me'moriy-rejaviy yechimlariga to'xtab o'tsak. Alohida bino ko'rinishda qurilgan masjidlarning me'moriy kompazitsiyalariga qarab ularni quyidagi asosiy turlari bo'lish mumkin:

- "chortoq" tuzilishidan masjidlar;
- bir va ko'p ustunli masjidlar;
- ayvonli masjidlar;
- hovlili masjidlar;

**Bir va ko'p ustunli masjidlar.** Bunday masjidlar o'lchamlari ustunlar o'lchamlari ustiga o'rnatiladigan kvadrat shaklli shiplarning soniga qarab aniqlangan. Ulardan eng ko'p tarqalgani bir ustunli (4 ta kvarat shipli) va to'rt ustunli (9 ta kvadrat shipli) masjidlardir. Shiftlar gumbazlarga aylanib ustunli-gumbazli masjidlarning bir necha turlari yuzaga kelgan.

Ko'p ustunli masjidlar O'zbekistonning Xorazm viloyati (Xiva, Xozarsp, Urgench shaharlarida) ko'p uchraydi. Xorazmda asosan jome masjidlari Buxoro va Samarqanddagi keng hovli uzra aylantirilgan ayvon sifatida emas, balki aksincha tashqi muhitdan iloji boricha muhofazalanib ishlangan. Mehroblar ham g'arbga emas, janubga qaratib ishlangan.

Eng nufuzli tilvatxonalaridan biri Xiva shahridagi **Juma** (yoki **Jome'**) masjidi (X asr, 1788 yilda qayta qurilgan) o'zining ixchamligi va ko'p ustunligi bilan ajralib turadi. Masjid binosi bir qavatli, tomonlari 46 m, ulkan va keng yagona zaldan iborat. Uning 212 ta ustuni (2-rasm.) bo'lib, ularning balandligi 4,5 metrdir. Masjid ichi shiftdagi 2 ta tuynuklar (1-rasm) orqali yoritiladi. Masjidda X asrdan 15 ta ustun saqlanib qolgan, qolganlari XI-XIV asrlarga tegishli turli-tuman ustunlardir.

Bu imorat tarhi 55x46 metrli to'rtburchakni tashkil etadi. Masjid usunlari turli davrlarga (X-XVIII asrlar) oid. Masjidda X asrdan 15 ta ustun saqlanib qolgan, qolganlari X-XVIII asrlarga tegishli turli-tuman ustunlardir. Ehtimol bu imorat shu yerda oldin mavjud bo'lgan masjidlar o'rniga qurilgan bo'lsa kerak. Ustun ostlari turunjsimon ko'za sifatida ishlanib, tagkursilarga o'rnatilgan. Janub devoriga iroqi muqarnas bilan mehrob ishlangan va unda yashil rangli naqsh izlari saqlangan. Yon tomonlarida qora va qizil rang berib ishlangan o'simliklar tasviri ham o'chib ketmagan.

Juma masjid o'rta asrlarda Xiva shahrining mashhur binolaridan biri bo'lgan. O'ziga xos qurilishi va hajmi bilan boshqa masjidlardan ajralib turgan. Masjidga uch tomondan kirish mumkin. Uning shimoli-g'arbiy burchagi oldida Qozikalon madrasasi joylashgan bo'lib, u ilgari o'rta maktab bo'lib xizmat qilgan.





1-rasm. Juma masjidining yuqoridan koʻrinishiva tuynuklari.


Juma masjid haqidagi ilk maʼlumot X asrda Xorazmga kelgan arab sayyohlari al-Muqaddasiy (Maqdisiy) va al-Istaxriy yozmalarida uchraydi. Manbalarga koʻra, Juma masjidning dastlabki binosi buzilib ketgan va oʻrniga Abdurahmon Mehtar buyrugʻiga binoan 1788-yilda xuddi shu usulda kattaroq yangi masjid qurilgan. Masjid oʻziga xos tarhi va hajmi bilan ajralib turgan. Bir qavatli boʻlib, atrofi gʻishtin devor bilan oʻralgan.

Uning boshqa masjidlardan farqi qadimiy arab meʼmorligiga xos uslubda (yopiq, koʻp ustunli hamda hovlisiz qilib) qurilganligidadir. Unda ayvonlar bilan oʻralgan hovli ham, ulkan peshtoq ham, gumbazli xonalar ham yoʻq. Xonaqoh ichi shiftdagi ikki tuynuk (1-rasm) orqali yoritiladi. Tomi yassi, toʻsinli, shipini 212 ta ustun (2-rasm) koʻtarib turadi. Bu ustunlarning eng qadimiysi Xorazmning oʻrta asrdagi poytaxti Kat shahridan olingan boʻlishi mumkin. Ustunlar 17 qatorli, oraligʻi 3,15×3,15 m qilib ishlangan. Mehrobi janubiy devor markazida joylashgan. Tashqi devorlari oddiy bezaksiz. Bosh tarzidagi eshik yogʻoch oʻymakorligida ishlangan noyob namuna hisoblanadi. Ichki bezaklari sodda ganch suvoq qilingan. Mehrob ravogʻida iroqi muqarnas va koʻk rangli boʻyama naqsh (XVIII asrga oid) saqlangan.

Ustunlar masjid tuzilishining asosini tashkil etish bilan birga uning badiiy bezagi hamdir. Ular oʻziga xos mutanosiblik va koʻrinishga ega. 212 ta ustundan X—XIV asrlarga oid 25 ta ustun eng qadimiysi boʻlib, tuzilishida bir qancha uslub namunalari bor (2-rasm). X—XI asrlarga oid 4 ta ustun chuqur boʻrtma naqshli, kufiy xati islmiy naqsh bilan uygʻunlashgan. Unda faqih Abul Fadal Muhammad Laysi farmoni bilan qurilgani yozilgan. XI—XII asrlarga oid 17 ustun nisbatan sayoz oʻyilgan, undagi handasiy naqshlar oraligʻi uslublashtirilgan, nabotiy shakllar bilan toʻldirilgan, yozuvlari kufiy xatida bitilgan (yaxshi saqlanmagan) XV asrga oid 3 ta ustun islmiy, girih naqshlar va nasx xatida hoshiya qilib terilgan. Bu uslubdagi oʻymakorlik bezaklari mehrob yaqinidagi yogʻoch taxtachalarda va eshik tabaqalarida uchraydi. Nasx yozuvlar bitilgan ustunlar Bogʻbonli masjid ustunlari bilan bir xil. Ustunlarning birida milodiy 1510-yil yozuvi saqlangan. Ular mehrob yaqinidagi marmar taxtalar bilan bir vaqtda oʻrnatilgan boʻlishi mumkin. Kichik marmar taxtada 1666-yil, ikkinchi marmar taxta yozuvidagi vaqfnomada vazir Abdurahmon amri bilan Quyuqtom va Bekobod qishloqlarida masjidga vaqf yerlari ajratilganligi va daromadni xayr-ehsonga hamda masjid zaruriyatiga sarf qilish lozimligi yozilgan (1788—1789-yillar). Qolgan ustunlar Xorazmdagi turli binolardan yigʻib keltirilgan. Uzunlari masjid qurilishiga moslab qirqilgan, kaltaroqlari murabba



shakldagi tosh poyustun ustiga ko‘zagi va kallaklar ishlanib o‘rnatilgan. Hamma ustunlar muayyan mujassamot asosida joylashtirilgan. Masjidda qadimgi naqshinkor ustunlardan 15 tasi saqlanib qolgan, 8 ta ustuni esa Toshkentda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda.



2-rasm. Juma masjididagi ustunlar.

Masjid yonidagi minora XVII asrda qulab tushgan, XVIII asrda mayda pishiq g‘ishtdan qayta tiklangan. Minora yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Tepasiga sharafo va g‘ishtdan dandana xoshiya belbog‘lar ishlangan (3-rasm).



3-rasm. Juma masjidi yonidagi minora.



Juma masjid bir necha bor ta'mirlangan. Shulardan biri bo'lgan ta'miri 1990-yilda Xivaning 2500 yilligi arafasida bajarilgan.

Professor Yahyo G'ulomovning fikricha, bu ustunlarning ba'zilari butun O'zbekistonda yog'ochga o'yima naqsh solish san'atining eng qadimgi yodgorliklaridir. Bu nodir yodgorliklarni 1979-yili arxitektor Sonechkin loyihasi asosida ta'mirlash boshlanadi. Juma masjidning 108 ta ustuni 1983-yili aholidan sotib olingan. XVIII—XX asr boshlariga oid naqshinkor ustunlar bilan almashtirilgan. 1996—1997-yillarda Juma masjid ta'mirlandi va ko'pchilik ustunlar almashtirildi.

**Said ota masjidi** – Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi me'moriy yodgorlik (1766). Masjid usti yopiq hovli (14,0x7,0 m), xonaqoh (7,0x7,0 m), ayvon va unga kiraverishdagi qo'shimcha xonalar (qorovulxona, otxona va boshqalar)dan iborat. Masjid oldini qator ustunli ayvonlar egallagan. Hovli markazida quduq saqlangan. Xonaqoh gumbaz tomli, gumbaz asosiga g'ishtin sharafalar, ostki qismiga 8 ta ravoqli deraza ishlangan. Said ota masjidi bezaksiz, yog'och o'ymakorligida bezatilgan ustun, eshik va dera'zalari bilan diqqatga sazovor. Darvozdagi arab yozuvlari orasida masjidning qurilgan yili qayd etilgan.

Said ota masjidining boshqa masjid qurilishlaridan farqi shuki, o'rtasida hovlisi bor (4-rasm). Quduq qazilgan va chog'roq gulzor bo'lgan hovlichaning janubiy tomoni 2 qator va qolgan tomonlari 1 qator yog'och ustunli ayvon bilan o'ralgan. Masjidga kirish yo'li sharqqa qaragan. Eshikning ro'parasida, masjidning g'arbiy devori bo'ylab gumbazli (5-rasm) xonaqoh va shimol tomonidagi katta xonaning tepasida kichik masjid qurilgan, uning yonida qoravulxona bor. Avval xonaqoh, so'ng shimoldagi yopiq masjid va keng hovlisi bo'lgan katta inshoot qurilgan bo'lishi kerak. Xovli tomonlari 29,3x 26,2 metr, xonaqohiniki 9,6x 14,4 va qishki masjid 14,7 metr.




4-rasm. Said Ota masjidining hovli qismida namoz o'qish jarayoni.

Masjid kompozitsiyasining asosini bir qatorli yog'och ivan ustunlari va g'isht panjarasi bilan o'ralgan, tashqi tomondan bo'sh va ichki tomondan bo'sh uchli bo'shliqlar bilan bo'lingan hovli hisoblanadi. U to'rtburchaklar shaklida, ko'cha bo'ylab cho'zilgan. Uzun tashqi devorda mehrob joylashgan. Mehrob devoriga tutash ivan ikki qator ustunlargacha chuqurlashtirilgan. Kirishlar uzunlamasiga va oxirgi devorlarda assimetrik tarzda joylashgan. Yordamchi binolar hovli tashqarida joylashgan va u bilan bevosita aloqa qilmaydi. Hovli markazida Xorazm turar-joylaridagidek quduq va gulzor bor. Qishki namozxon xonaqoh hovlining g'arbiy tomoni ortida alohida bino sifatida belgilangan. U bilan aloqa masjidning g'arbiy ayvonidan kirish mumkin bo'lgan



cho‘zinchoq ma‘muriy bino va shimoli-g‘arbiy burchakdagi qishgi yopiq hovli orqali o‘tadi. Xonaqoh — to‘rtta bo‘shliqli katta gumbazli zal, eni zalning yon tomoniga deyarli teng ya‘ni janubiy mehrob nishi 4 metrgacha chuqurlashtirilgan. Gumbazning asosi g‘ishtdan yasalgan.



5-rasm. Said Ota masjidining gumbazi.

Sakkizta lansetli derazalar pastki qismida raffa va skufiya orqali kesilgan . Uning erkin hajmli-fazoviy tarkibi qiziq.

Majmua faqat o‘yilgan yog‘ochning ajoyib detallari bilan bezatilgan. Hovli ayvonlarining ustunlari, eshiklari va darvozalarida ham o‘ymakorlik na‘munalarini ko‘rishimiz mumkin.

**Bog‘bonli masjid.** Masjidning umumiy tarhi 26x13,3 m ni tashkil qiladi. Bosh tarzidagi gumbazli darvozaxona orqali hovliga kiriladi. Darvozaxonaning ikki yonida hujralar joylashgan. Xovlining ikki tomoni devor bilan o‘ralgan. Yuqorida oldi ayvonli, gumbazli xonaqoh (6,8x6,8 m) joylashgan. Devori va poydevori pishiq g‘ishtdan, darvozaxona peshtog‘i silliqlangan g‘ishtdan juft-juft qilib terilgan, derazalari panjara shaklida ganchdan ishlangan. Eshigi o‘yma naqshli (Usta Ro‘zi Muhammadning ismi qayd etilgan). Xonaqoh ichki devorlari ganch suvoqli. Janubiga mehrob, boshqa tomonlariga chuqur va keng ravoqlar ishlangan. Ayvon shipi va ustun (XIV asrga oid)lari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Masjid to‘rtburchak shaklda bo‘lib, ikki ustunli va gumbazli qishgi xonaga ega. Binoning yog‘och ustunlariga o‘yib ishlangan bezaklar badiiy qiymatga ega bo‘lib, ular Juma masjidining bezaklariga o‘xshab ketadi.

Ustunlar kursilarga o‘rnatilgan. Masjid kiraverishiga o‘rnatilgan marmar tosh lavhaga yozuvlarni o‘yib ishlagan usta Polvonqulning ismi va bino qurilgan yili she‘riy satr bilan yozilgan. Shuningdek, unda masjidning qurilishi haqidagi tarix ham keltirilgan. Bitiklar arab alifbosi, forsiy tilda, nasta‘liq xattotlik uslubida yozilgan. Marmar lavhning saqlanish holati yaxshi. Eshiklarda yog‘och o‘ymakorligining yana bir ustasi — Yangiariq tumanining Ostona qishlog‘idagi Shayx Muxtor Valiy maqbarasi ziyoratxonasiga olib boruvchi o‘yma naqshli eshikni yasagan usta Odina Muhammadning



o‘g‘li Ro‘z Muhammadning nomi yozilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, masjid ikki bog‘bon aka-uka xayriya qilgan pul evaziga qurilgan.

Katta gumbazga ega bu masjid ko‘rinishidan XIV—XV asrlar yodgorligini eslatadi, sababi uning ichki bezaklari, ayvonidagi ikkita ustunining o‘yma naqshlari, ularda yozilgan hadislar shu davrga xosdir. Ustunlar masjidning avvalgi binosidan qolgan bo‘lishi ham mumkin.

1813-yilda noma‘lum muallif tomonidan yozilgan „Halvati so‘hifo“ qo‘lyozmasida ushbu yozuvlar yozilgan: „Va nurnishon Eltuzarxonning ayyomi davlatinda bino topgan Zubayda xonimning masjidlarini Pahlavon Quli bog‘bonli yiqib toshdin gumbaz qilib adog‘a yetkurdi“. Bundan xulosa qilish mumkinki, avval xom g‘ishtdan cho‘bkori usulida qurilgan masjidning nomi Zubaydaxonim bo‘lgan. Bog‘bonli masjidning g‘arbiy tomoniga yaqin bir qabr qurilgan va bu qabr Zubayda xonimning qabri bo‘lishi kerak

Bu trapetsiya shaklidagi hovlilil majmuadagi choraklik gumbazli masjididir. Hovliga kiraverishdagi xonalar guruhi uch qismdan iborat bo‘lib, o‘rtada yo‘lakchali gumbazli darvozaxona va yon tomonlarida ikkita kvadrat shakldagi tahorat xonalari joylashgan. Masjidning o‘zi to‘rtburchak shaklida, bir kamerali bino bo‘lib, shimolga yo‘naltirilgan bir tomonli ikki ivan ustunlari mavjud. Kvadrat zal to‘rtta devorda chuqur va keng bo‘shliqlar bilan kengaytirilgan, janubiy qismda mehrob joylashgan. Bo‘shliqlar kvadrat ramkalar bilan o‘ralgan bo‘lib, arklar kechki me‘morchilikka xos burchak bilan bog‘langan.

To‘rtburchak yelkanlar satridan gorizontal tokcha bilan ajratilgan. Yelkanlar kamarlari ham kvadrat ramkalar bilan o‘ralgan, burchak kamarlarining qo‘ltig‘i uchburchak shaklidagi yopiq yarim to‘rlar bilan qoplangan.

Zalning tojlari arqonli yelkanli sharsimon gumbaz (6-rasm) bilan bezatilgan. Ivan ikkita qo‘llab-quvvatlovchi ustunda tekis nurli tom bilan qoplangan. Ivan devoridagi shkaflar, darvozaxonning yon xonalari “balxi” gumbazlari bilan qoplangan.



6-rasm. Bog‘bonli masjidining tashqi ko‘rinishi va gumbazi.

Darvozaxonaning jabhasi “kamon” qo‘shimchalari bo‘lgan qo‘sh toshli silliqlangan g‘isht bilan qoplangan. Kamon toshlari yuqori qismdagi 4x9,8 sm gorizontal, yon tomonlarda - vertikal ravishda



aylantirilib joylashgan. Kiraverishda yaxshi o'yib ishlangan yog'och darvoza qo'yilgan. Qolgan jabhalar g'isht holicha qoldirilgan. Masjid ichidagi devorlar oq ganch bilan ishlangan.

Ivan ustunlari bo'yalgan shift bilan bezatilgan, uch qismga bo'lingan, markazda gumbaz mavjud. Marmar poydevorga o'yilgan yog'och ustunlar masjidning o'zidan kattaroq bo'lib, unga moslashtirilgan, tepasiga joylashtirilgan va, ehtimol, bu yerga boshqa binodan keltirilgan. Ularning bezaklari Juma masjidining 14-asrdagi ustunlariga o'xshaydi, bezak kamarlari ustun tanasining butun uzunligi bo'ylab, kuzagidan tortib, poytaxt ostidagi bo'yingacha bo'lgan yozuvlar bilan almashinib turadi. Ichki bo'shliqlar tepasida ustunlar bilan bir xil uslubda matn va bezakli o'yilgan yog'och taxtalar kiritilgan.

Bog'bonli masjidi qurilishi bitiklariga nihoyatda boy. Masjidga kiraverishning sharqiy tomonidagi devorga o'rnatilgan tosh lavhada tojik tilida nastaliq qo'lyozmasida bitilgan, masjid qurilishi haqida ma'lumot o'z ichiga olgan: "Ustoz Pahlavonqulining yaxshi rejasi toj kiyish edi. Xudoning inoyati bilan muvaffaqiyati bilan. Qonuniy xotin qalbining pokligidan, bir kishini rozi qilish va buyuklikka ega bo'lish uchun bu muhtasham masjidning hayratlanarli qurilishini zimmasiga oldi".

Oxirgi ikki satrda "tarix" bor: harflarning son qiymati yig'indisi hijriy 1224 yilni bildiradi, yoki milodiy 1809 yil (Yu. N. Zavadovskiy tomonidan tarjima qilingan). Xuddi shu sana ivanning shiftida o'qiladi. Old eshikda 19-asr ustasining ismi yozilgan: "Ro'zi Muhammad, o'g'lim".

Masjidning janubiy qismidagi lyuk ostida hovli bor. Masjid poydevori loy ohak ustidagi g'ishtdan, bir tomonlama ichki pog'onali kengaytirilgan. Pastki yerlar bir hil bo'lib, qadimgi toshning ko'rinadigan qoldiqlari yo'q. Poydevorning taglikdan chuqurligi 70-80 sm. Rivoyatlarga ko'ra, masjid ikki bog'bon aka-uka xayriya qilgan pul evaziga qurilgan.

Katta gumbazga ega bu masjid ko'rinishidan XIV—XV asrlar yodgorligini eslatadi, sababi uning ichki bezaklari, ayvonidagi ikkita ustunining o'yma naqshlari, ularda yozilgan hadislar shu davrga xosdir. Ustunlar masjidning avvalgi binosidan qolgan bo'lishi ham mumkin.

1813-yilda noma'lum muallif tomonidan yozilgan „Halvati so'hifo“ qo'lyozmasida ushbu yozuvlar yozilgan: „Va nurnishon Eltuzarxonning ayyomi davlatinda bino topgan Zubayda xonimning masjidlarini Pahlavon Quli bog'bonli yiqib toshdin gumbaz qilib adog'a yetkurdi“. Bundan xulosa qilish mumkinki, avval xom g'ishtdan cho'bkori usulida qurilgan masjidning nomi Zubaydaxonim bo'lgan. Bog'bonli masjidning g'arbiy tomoniga yaqin bir qabr qurilgan va bu qabr Zubayda xonimning qabri bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Uralov, T.Qairova. O'rta Osiyo Arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslari V (2013-y).
2. Muhammad Ahmedov. O'rta Osiyo me'morchilik tarixi (1995-y)
3. Л. Маньковская, В.Булатова. Памятники зодчества Хорезма (1978-г)
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Juma\\_masjid\\_\(Xiva\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Juma_masjid_(Xiva))
5. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Said\\_ota\\_masjidi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Said_ota_masjidi)
6. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bog%CA%BBbonli\\_masjid](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bog%CA%BBbonli_masjid)
7. Rakhmanova, M. B. (2023). TRADITIONAL ARCHITECTURAL FORMS IN MODERN BUILDINGS IN UZBEKISTAN. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, (2), 241-244.
8. Yuldasheva, M. K., & Raxmanova, M. B. (2023). ARCHITECTURE OF THE FUTURE—MODERN TRENDS AND INNOVATION. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 314-319.
9. Рахманова, М. Б., & Муродкулова, Г. Ш. (2023). О'ZBEKISTONDA BOLALAR DAVOLASH-DIAGNOSTIKA MUASSASALARINUNG INNOVATSION LANDSHAFT





ARXITEKTURASI LOYIHALARINI SHAKLLANTIRISH. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK  
VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(3), 35-39.

